

VOLUME II | ISSUE 3 | MAY-JUNE

2024

SPECIAL ISSUE

Journal of Pedagogical
and
Psychological Studies

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ISSN: 2181-4066



Available online at www.imfaktor.com

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

II-ЖИЛД, 3 СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-II, НОМЕР 3

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE 3

ТОШКЕНТ - 2024

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 3 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2024-3>

Бош муҳаррир:

Нишонова З.

– психология фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Давлатов Ойбек.

– педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

Таҳририят аъзолари:

1. Юсупова Хабиба Ирискуловна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
2. Олимов Лазиз Ярашович – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
3. Элов Зиёдулло Сатторович – психология фанлари доктори, доцент
4. Ганжиев Феруз Фурқатович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
5. Мусаева Мухаббат Эшбаевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
6. Умаров Баҳром Норбоевич – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
7. Орипова Раънохон Иброхимовна – педагогика фанлари номзоди, доцент
8. Ўринова Феруза Ўлжаевна – педагогика фанлари номзоди, доцент
9. Ниёзова Лутфия Худайбергановна – дефектолог - эксперт
10. Салиева Дилором Абдуллаевна – психология фанлари номзоди
11. Останов Шухрат Шарифович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
12. Рустамов Шавкат Шухратович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
13. Халлокова Максудахон Эргашевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
14. Исмаилова Раъно Нураевна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
15. Саримова Дилдора Соаталиевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
16. Улуғова Шахлола Муслиддиновна – психология фанлари номзоди, доцент
17. Махмудова Зулфия Мехмоновна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
18. Худайберганов Шухрат Шавкат ўғли – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
19. Исматова Дилафруз Тўймуратовна – психология ф.б.ф.д. (PhD)
20. Улуғова Шахлола Муслиддиновна – психология фанлари номзоди, доцент
21. Махмудова Зулфия Мехмоновна – психология ф.б.ф.д., (PhD)
22. Ўринова Озодахон Ўлжаевна – педагогика ф.б.ф.д., (PhD)
23. Рўзиёв Умар Музафарович – психология ф.б.ф.д., (PhD)
24. Останов Жасур Шопиржонович – психология ф.б.ф.д., (PhD)
25. Лола Камоловна Илиева (Бахриддинова) – педагогика фанлари номзоди, доцент
26. Муродова Дурдонахон Райимжон қизи – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

“Педагогик ва психологик тадқиқотлар” журнали 6 та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун UIF 2023 = 8.2 “импакт-фактор” кўрсаткичига эга. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар хорижий мақолалар сифатида тан олинади.

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор
24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, **E-mail:** tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2024 йил.

© Мўаллифлар жамоаси, 2024 йил.

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

AKBAROVA Sadoqat Asadullayevna
*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti
o'qituvchisi*

ALIMOVA Moxidil Zafarovna
*"Pedagogika va psixologiya" fakulteti
talabasi*
<https://doi.org/10.5281/zenodo.11484600>

YOSH AVLODGA TA'LIM VA TARBIYA BERISH JARAYONIDA JADIDCHILIK FAOLIYATINING O'RNI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola orqali yangi asr rivoji uchun o'z hissasini qo'shgan jadidlardan biri, Abdulla Avloniy hayot yo'li, uning ijodidagi asarlarining tub mohiyati, mazmuni haqida ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Jadid ma'rifatparvarlarining asarlarida yoshlarni vatanparvarlik ruhida axloqiy jihatdan kuchli qilib tarbiyalashda tarbiya masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Yangi asr rivoji uchun o'z hissasini qo'shgan jadidlardan biri, Abdulla Avloniy hayot yo'li, uning ijodidagi asarlarining tub mohiyati, mazmuni haqida ma'lumotlarga ega bo'libgina qolmay, u bosib o'tgan mashaqqatli, shu bilan birga, haqqoniy yo'l haqida ham tushunchaga ega bo'lamiz desak hato bo'lmaydi.

Kalit so'zlar: jaholat, jadid, ma'rifat, jadidchilik, milliy fojea, ta'lim, tarbiya, qadriyat, Abdulla Avloniy, Abdulla Avloniy hayot yo'li, Jadid ma'rifatparvarlari, vatanparvarlik, ma'rifatparvarlar, asarlarining tub mohiyati.

РОЛЬ ДЖАДИДИСТСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

Благодаря этой статье мы получим информацию о жизненном пути Абдуллы Авлони, одного из пионеров, внесших вклад в развитие нового века, сути и содержания его произведений. В трудах современных просветителей особое внимание уделялось вопросам воспитания молодежи в духе патриотизма. Нельзя ошибиться, если сказать, что один из джадидов, внесших свой вклад в развитие нового века, Абдулла Авлани, не только получит информацию о сути, содержании своих произведений в своем творчестве, но и поймет трудный, но в то же время верный путь, по которому он прошел.

Ключевые слова: невежество, Джадид, просвещение, джадидизм, национальная трагедия, образование, воспитание, ценность, Абдулла Авлони, жизненный путь Абдуллы Авлони, джадидские просветители, патриотизм, просветители, коренная сущность его произведений.

THE ROLE OF JADIDIST ACTIVITY IN THE PROCESS OF EDUCATION AND UPBRINGING OF THE YOUNGER GENERATION

ANNOTATION

Through this article, we will get information about the life path of Abdulla Avloni, one of the pioneers who contributed to the development of the new century, the essence and content of his works. Today, these ancestors of ours should act as a mirror for the younger generation. In the works of modern enlighteners, special attention was paid to the issues of educating young people in the spirit of patriotism. One of the jadids who made their contribution to the development of the new century, Abdulla Avloni, will not only have information about the life path, the fundamental essence, content of his works, but will also have an understanding of the painstaking, at the same time, truthful path that he has overcome.

Keywords: ignorance, Jadid, enlightenment, Jadidism, national tragedy, education, upbringing, value, Abdulla Avloni, Abdulla Avloni life path, Jadid enlighteners, patriotism, enlighteners, the fundamental essence of his works.

Jadidchilik ma'rifatparvarlik harakati XIX asrda vujudga kelgan ommaviy ma'rafiy harakat hisoblanadi. Jadid so'zi arabcha "yangi" degan ma'noni anglatadi. Jadidchilik harakatining bosh g'oyasi xalqni ma'rifatli qilish orqali mustamlaka zulmidan ozod qilishga qaratilgan ma'rifatparvarlik harakatidir.

"Jadidlar g'oyasi" - Yangi O'zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohang. "Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur [1].

Har qanday asrda va davrda insoniyat jaholat va ma'rifatning o'zaro olishuvi jarayonini boshidan kechirgan. Xo'sh, shunday ekan jaholat nima? Ma'rifat-chi? Jaholat so'zi o'zbekcha so'z bo'lib "nodonlik", "aqlsizlik", "ilmsizlik", "qoloqlik", "madaniyatsizlik" kabi ma'nolarni bildiradi. Jaholatning oqibatlarini insoniyat taraqqiyotining tanazzuliga sabab bo'lganligi tarixdan ma'lum. Bilimsizlik, nodonlik jaholatning uyasidir. Ma'rifat so'zi esa arabcha so'z bo'lib, "bilim", "fan", "ma'lumot" ma'nosini anglatib, bilim va madaniyatni yoyish hamda yuksaltirishning hamma turlarini qamrab oluvchi ta'lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, diniy, falsafiy g'oyalar asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan faoliyatdir [2, 3].

Jaholatga qarshi ma'rifat orqali kurashish odamning ma'naviy qaramlik, qo'rquv va hadiksirashdan qutulishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uning cheksiz kuch-qudratga ega bo'lishiga ko'maklashadi. Ushbu fikrni isbotlashda xalqimizning yaqin o'tmishi yaqqol misol.

Vatanini jaholat botqog'idan olib chiqish yo'lidagi jadidchilarimizning mardonavor harakatlari bunga yaqqol misoldir. Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari Turkistonni o'rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish, «Usuli qadim» ni inkor etgan holda o'lkani, xalqni, millatni zamonaviy mutaraqqiy yo'lga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, konstitutsion, parlament va prezident idora usulidagi ozod va farovon jamiyat ko'rish, turkiy tillarga davlat tili makomini berish, milliy pul birligi, milliy qo'shin tuzish rus taraqqiyparvarlari, ma'rifatchilarining Turkiston o'lkasida ma'rifatparvarlik g'oyalarini tarqatish uchun imkoniyatlar yaratish edi. Eng asosiysi bu kabi maqsadlarga erishish uchun aholi ongli, savodli bo'lishi kerak edi. Bu yo'lda jaholatga qarshi jadidchilarimiz qanday yo'l tutdilar?

Yurt boshidagi nafaqat mustamlakachilik, balki bilimsizlik, savodsizlik qutqusiga qarshi qanday kurash olib bordilar?! Bizni mustamlaka qilgan son va moddiy qurol-aslahaga bazasiga ko'ra bizdan bir necha o'n barobar kuchli Chor Rossiyasiga qarshi qurol ko'tarib jang qilish biror samara berardimi?! Albatta, yo'q.

Keling, yetakchi jadidchilarimizdan bir nechtalarining jaholatga qarshi qay tarzda kurash olib borganliklarini ko'rib chiqamiz:

Abdulla Avloniyning bosh maqsadi yoshlarni savodli qilishdan iborat bo'lib, johillarga qarshi eng keskir qurol bo'lmish ma'rifatni yoyishga jon jahdi bilan kirishdi. Uning maktabi gumanistik va erkin tarbiya asosiga qurilgan, dunyoviy va ilg'or ilm-fanni bolalarga o'rgatishni o'z oldiga asosiy vazifa qilib qo'ygan, yoshlarni mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga aralasha olish qobiliyatiga ega bo'lishini ta'minlaydigan haqiqiy xalq maktabi bo'ldi.

Adib bu maktablar uchun darsliklar tuzdi. Avloniyning avvalgi sinf shogirdlari uchun - Birinchi muallimli (1911) Oktyabr o'zgarishigacha 4 marta, -Alifbedan so'nggi o'quv kitobi - Ikkinchi muallim (1912) 3 marta kayta nashr etilgan. Axloqiy didaktik mazmundagi -Turkiy Guliston yoxud axloq darsligi (1913) XX asr boshlari ijtimoiy pedagogik fikr taraqqiyotida alohida o'rin egalladi.

Bedil fikrlari bilan dalillagan holda zamonaviylikni asosiy mezon qilib oladi. Adib Vatan muhabbatini uning uchun kurashmoqni eng yaxshi insoniy xulqlardan hisobladi. Vatan – bu har bir kishining tug'ilib o'sgan shahar va mamlakati. Uni qadrlamoq, sevmok, yashartmoq kerak. Shoir Vatan va unga muhabbat deganda shuni tushungan edi. Tilga, madaniyatga muhabbat esa, har bir kishining o'z xalqiga bo'lgan muhabbatidir: - Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgon oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur. Eng ajablanarlisi shundagi, A.Avloniy yozgan o'nlab she'rlar orasida bitta ham oshiq va ma'shuqa sevgisi, muhabbati mavzusida yozilgani yo'q. U umr bo'yi eli, yurti uchun yonib ijod qildi, millat qayg'usi bilan yashadi [4].

Bugunda ma'rifarparvar jadidlarning bebaho asarlari, ilmiy, nazmiy va nasriy meroslari, ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g'oyalari o'zbek xalqining ma'naviy ma'rifatini, milliy tarbiya, milliy qadriyatlar va milliy ongni yuksaltirish yo'lida xizmat qilib, yoshlar qalbida vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini tarbiyalab kelmoqda.

Mustaqillik tufayli ma'rifatpar jadidlarning nomlari tiklanib, tavnallud kunlari tantanali nishonlandi, ularning pok nomi oqlandi, asarlari qayta-qayta chop etildi. Ularning dunyoqarashlarida bayon etilgan falsafiy-axloqiy fikrlari xalqimizning madaniy-ma'naviy qadriyatlar sifatida hanuzgacha saqlanib kelmoqda.

ИҚТИБОСЛАР. СНОСКИ. REFERENCES.

1. Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 22-dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishi
2. K. Hoshimov, S. Nishoinova "Pedagogika Tarixi" Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent. 2005-yil.
3. Qosimov B. Abdulla Avloniy. T., 1979.
4. N. K. Hoshimov, S. Nishoinova "Pedagogika Tarixi" Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent. 2005-yil.

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

II-ЖИЛД, 3 СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-II, НОМЕР 3

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE 3

«Педагогик ва психологик тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz